

RESEARCH ARTICLE

Uzbek Equivalents Of Malay Phraseological Units

Nilufar Narzullayeva

3rd-year Student, Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 128-129

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article analyzes Malay idiomatic expressions (pe-ri-ba-ha-sa) used in the context of family and upbringing. For each peribahasa, its meaning, cultural context, and Uzbek equivalent are provided. The study demonstrates how the family values of Malay and Uzbek peoples—as well as their views on parents, children, and kinship relations—are reflected in stable idiomatic expressions.

KEY WORDS

Peribahasa, phraseology, family, upbringing, cultural linguistics, Malay language, Uzbek language.

INTRODUCTION

Har bir xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarbiya-viy qarashlari maqol, ibora va peribahasalarda o'z ifodasini topadi. Malay tilidagi frazeologizmlar jamiyatning oilaga bo'lgan munosabatlarini, ota-ona hurmatini va farzand tarbiyasiga oid qadriyatlarni aks ettiradi. O'zbek xalq maqollari ham xuddi shunday xalqona donishmandlikni ifoda etadi. Shu bois, Malay tilidagi oila mavzusidagi frazeologizmlar va ularning o'zbekcha ekvivalentlarini solishtirish ikki xalqning madaniy o'xshashliklarini yo'ritishga xizmat qiladi.

Malaycha maqol: Bapak borek, anak rintik [5, 11].

O'zbekcha tarjimasi (to'g'ridan-to'g'ri): "Ota nuqsonli, bola kichik nuqsonli" [4].

Izohi: Ushbu maqol ota va bola o'rtasidagi merosiy xulq-atvor va tabiiy odatlarni ifodalaydi. Agar ota xulq-atvori yoki odatlari bilan nuqsonli bo'lsa, bo-la ham shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bu nafaqat yo'mon odatlarda, balki yaxshi odatlarda ham amal qiladi: ota yaxshi xulqli bo'lsa, bola ham yaxshi xulqli bo'ladi.

O'zbek maqollari bilan taqqoslash: Bu maqol O'zbek tilidagi mashhur maqollar bilan to'liq uyg'un keladi: "Qush uyasida ko'rganini qiladi" – bo-la ota-onasidan yoki oilasidan olgan

odatlarini davom ettiradi. "Ol-ma-ning tagiga olma tushadi" – bola ko'pincha ota-onasiga o'xshash xatti-harakatlar va fazilatlarni namoyon qiladi.

Maqol hayotiy tajribaga asoslangan bo'lib, ota va bola orasidagi ta'limiy va axloqiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Bola ota-onasini kuzatib o'sadi va ularning xulqini, fazilatlarni, hatto kichik odatlarini ham o'zlashtiradi. Shu-ning uchun ota-onaning ijobiy odatlarni namoyon qilishi, bolaga to'g'ri yo'l ko'rsatishi muhimdir. Agar ota xulq-atvori yomon bo'lsa, bola ham shu yo'nalishda tarbiyalanishi mumkin, shuning uchun ota-onalar o'z xulqini doimo nazorat qilishlari va yaxshi namuna ko'rsatishlari zarur.

Malaycha maqol: Air dicincang tidak akan putus [4, 5].

O'zbekcha tarjimasi: "Suv bo'laklarga bo'linsa ham uzilmaydi" [4].

Izohi: Ushbu maqol aka-uka, opa-singil yoki yaqin qarindoshlar orasida kelishmovchilik va tushunmovchiliklar vaqtinchalik ekanligini ifodalaydi. Qancha bahslashish yoki tushunmovchilik bo'lmasin, oxir-oqibat oila a'zolari bir-birini tushunadi va yarashadi. Maqol ijtimoiy va oilaviy qadriyat-larni targ'ib qiladi, ya'ni

qarindoshlik aloqalari har doim davom etadi va bu-zib bo'lmaydi.

O'zbek maqoli bilan taqqoslash: "Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmay-di" – ikki kishining juda yaqin, mehribon va ajralmas ekanini bildiradi.

Maqol hayotiy tajriba va madaniyatga asoslangan bo'lib, u oila ichidagi sabr-toqat va yarashishning ahamiyatini ko'rsatadi. Oilaviy nizolar vaq-tin-cha-lik bo'lishi mumkin, lekin chin do'stlik va qarindoshlik rishtalari abadiy davom etadi. Shu sababli, har bir qarindosh bir-biriga hurmat ko'rsatishi va nizolarni darhol hal qilishga harakat qilishi muhimdir.

Malaycha maqol: Seperti menatang minyak yang penuh [5, 99].

O'zbekcha tarjimasi: "Idishdagi to'la yog'ni ko'tarib yurgan kabi" [4].

Izohi: Bu maqol bolani juda ehtiyotkorlik bilan, katta mehr va g'am-xo'r-lik bilan tarbiyalashni ifodalaydi. "Menatang minyak yang penuh" so'z-ma-so'z tarjimada "idishdagi to'la yog'ni ko'tarib yurish" degan ma'noni beradi. Idish to'la bo'lgani uchun eng kichik xatolik ham tomchilarni to'kib yu-borishi mumkin, shuning uchun harakatlar juda muloyim va ehtiyotkor bo'lishi kerak.

O'zbek maqollari bilan taqqoslash: Bola sog'ligi — ona boyligi – Bu ma-qol bolaning sog'lomligi va farovonligi ona uchun eng katta boylik ekanini bildiradi. Farzandning salomatligi va baxti ota-onaga uchun moddiy boy-lik-dan ham ustunroq hisoblanadi, shuning uchun ota-onaga bola sog'lig'iga alo-hida e'tibor qaratishi kerak.

Farzandni boqish qiyin, Farzandga yoqish qiyin – Bu maqol bolani tar-biyalashning qiyinchiliklarini ifodalaydi. Farzandning jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondirish, tarbiyalash oson ish emas, shuningdek, har doim u-ning xohlari va talablariga mos kelish ham murakkabdir. Shu sababli ota-onaning sabr-toqati va mehr-muhabbati muhim hisoblanadi.

Malaycha maqol: Di mana ada keluarga, di situ ada cinta [6, 68].

O'zbekcha tarjimasi: "Qayerda oila bo'lsa, o'sha joyda sevgi bor" [4].

Izohi: Bu maqol shuni bildiradiki, qayerda oila mavjud bo'lsa, o'sha joy-da muhabbat ham mavjud bo'ladi. "Keluarga" – oila,

"cinta" – sevgi, mu-hab-bat degan ma'noni bildiradi. Maqol oiladagi mehr-muhabbat, bir-birini qo'l-lab-quvvatlash va yaqinlikni ta'kidlaydi.

O'zbek maqoli bilan taqqoslash: Sevging toza — umring toza –inson qal-bidagi sevgi pok va samimiy bo'lsa, uning hayoti ham barakali va oso-yish-ta bo'ladi. "Sevging toza" – qalbdagi sof, pok sevgi, "umring toza" – ha-yo-ting pok, osoyishta va baxtli bo'lishi degan ma'noni anglatadi.

Malayziya va O'zbekiston maqollari har ikkisi ham xalqning hayot taj-ri-basi, qadriyatlar va odatlarini aks ettiradi. Malayziya maqollari ko'-pin-cha ijtimoiy munosabatlar, hurmat, mehnatsevarlik va hayotiy mas-la-hat-lar-ni o'zida mujassam etadi. Masalan, ular oilaviy qadriyatlar va ham-kor-lik-ni qadrlashga urg'u beradi. O'zbekiston maqollari esa ko'proq axloqiy qad-ri-ya-tlar, sabr-toqat, dono maslahat va insoniylikka urg'u beradi.

Har ikki xalqning maqollari qisqa va lo'nda bo'lishi bilan birga, hayotiy ha-qiqatlarni oddiy tilda yetkazadi. Ular yosh avlodga tarbiya berish, axloqiy me'-yorlarni eslatish va ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish vositasi si-fa-ti-da xizmat qiladi. Shuningdek, maqollar orqali xalq o'z tarixiy tajribasini, ma-daniyati va dunyoqarashini kelajak avlodga yetkazadi.

Xulosa, Malayziya va O'zbekiston maqollari farqli madaniy kontekst-ga ega bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bir – insonlarni dono, ijtimoiy va ax-loqiy jihatdan to'g'ri yo'naltirishdir.

REFERENCES

- [1] – <https://myfarzand.uz/maqollar-ozbekcha2.html>
- [2] – https://ecentral.my/peribahasa-melayu/#google_vignette
- [3] – https://senaraiperibahasa.com/#google_vignette
- [4] – https://books.google.co.-uz/-books-/about-/Malay-Pro-verbs.-html-?-i-d=-G3-NgFQtVMCoC&redir_esc=y